

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TIBBIYOT TARIXI YOHUD INSON USTALARINING KASBI RIVOJLANISH EVOLUTSIYASI

Adham Mavlonov

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası, katta o'qituvchi.

Safoxon Mirzohidov

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali, kunduzgi ta'lim,
tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) fakulteti, 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tibbiyot tarixining muhim bosqichlari ko'rib chiqiladi. Qadimgi Yunoniston va Rim davrida Gippokrat va Galen kabi shaxslar tibbiyotning asosiy tamoyillarini tadqiq qilinadi. Islomiy dunyoda Ibn Sino va Al-Roziy tibbiyot faniga katta hissa qo'shib, bu bilimlarni Yevropaga yetkazganligi to'grisida ma'lumot beriladi. Renessans davrida Vesaliusning anatomik tadqiqotlari tibbiyot fanida yangi davrni boshlab berganligi, Ilmiy Inqilob davrida ilmiy metodlar va mikroskopning ixtiro qilinishi mikrobiologiya sohasida katta yutuqlarga olib kelgani, bu es zamonaviy tibbiyotning rivojlanishiga asos solganligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot tarixi, Gippokrat, Galen, Ibn Sino, Al-Roziy, Renessans, Andreas Vesalius, Ilmiy Inqilob, mikroskop, mikrobiologiya.

Tibbiyot – bu inson salomatligini saqlash, kasalliklarni oldini olish, aniqlash, davolash va tiklashga qaratilgan ilm-fan va amaliyot sohasi. Tibbiyotning asosiy maqsadi – insoniyatning sog'lig'ini yaxshilash va umrni uzaytirish.¹ Bu sohaga anatomiyadan boshlab, farmakologiya, jarrohlik, psixologiya va turli davolash usullari kiradi.

Tibbiyot insoniyatning eng qadimiy amaliyotlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi jamiyatning sog'lig'i va farovonligiga katta ta'sir ko'rsatgan. Tarixda tibbiyotning rivojlanishi bilan ko'plab kasalliklar nazorat ostiga olingan, ularning ko'payishi oldi olingan va bu jarayon jamiyatning umumiy salomatligini yaxshilashga xizmat qilgan.

¹ Ilosbek, A. (2023). LOTIN TILI VA TIBBIYOT TARIXI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(3), 3-6.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mesopotamiya — janubi-gʻarbiy Osiyoda, Dajla va Frot daryolari tizimida joylashgan qadimiy sivilizatsiya boshlanishiga katta hissa qoʻshgan hudud hisoblanadi.² Hudud tibbiyotning rivojlanishida katta rol oʻynagan. Mesopotamiya madaniyatida tibbiyot amaliyoti diniy va sehr-jodular bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan.³ Kasalliklar koʻpincha ruhiy yoki ilohiy sabablarga koʻra yuzaga keladi, deb hisoblangan. Mesopotamiyaliklar tibbiyotda dorivor oʻsimliklardan keng foydalanganlar. Ular tabiatdagi turli oʻsimliklardan dori tayyorlash usullarini bilgan va ularni jarohatlar, infeksiyalar, ogʻriqlar va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatganlar. Hammurapi qonunlarida tibbiyot amaliyoti va shifokorlar uchun qattiq qonunlar belgilangan.⁴ Bu qonunlar tibbiyotning jamiyatda qanchalik muhim boʻlganligini koʻrsatadi.

Qadimgi Misrda tibbiyot oʻziga xos darajada rivojlangan boʻlib, ularning amaliyotlari va nazariyalari zamonaviy tibbiyotning asosini tashkil etgan. Misrda shifokorlar, dorishunoslar va jarrohlar ixtisoslashgan kasblarga ega boʻlganlar.⁵ Qadimgi Misrda jarrohlik amaliyotlari ham rivojlangan boʻlib, oʻtkazilgan arxeologik qazilmalar davomida topilgan mumiyolar jarrohlik asboblari yordamida davolanganidan dalolat beradi.⁶ Misrliklar ham dorivor oʻsimliklardan keng foydalanganlar. Ular aloe, sarimsoq, piyoz, opiy, va koʻplab boshqa oʻsimliklardan dorilar tayyorlagan. Shifokorlar bu dorilarni turli kasalliklarni davolashda qoʻllagan. Misrning mashhur shifokorlaridan biri Imhotep hisoblangan.⁷ U tibbiyotda shunday yuksak darajaga erishgan ediki, keyinchalik uni ilohiy maqomga koʻtarishgan. Qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyatlarida jarrohlik amaliyotlari oʻsha davr uchun nihoyatda rivojlangan boʻlib, shifokorlar jarrohlik usullarini qoʻllaganlar. Misol uchun, Misrda bosh suyagini teshish (**trepanatsiya**) amaliyoti mavjud boʻlib,

² Amanda Onion, Missy Sullivan, Matt Mullen and Christian Zapata. <https://www.history.com/topics/ancient-middle-east/mesopotamia>

³ Sigerist Henri, *A history of medicine, i. Primitive and archaic medicine* (New York, 1951).

⁴ Vincent, G. E. (1904). The laws of Hammurabi. *American Journal of Sociology*, 9(6), 737-754.

⁵ Nunn, J. F. (2002). *Ancient egyptian medicine*. University of Oklahoma Press.

⁶ Mavlanov, A., & Mirzohidov, S. (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. *Science and innovation*, 3(C1), 5-7.

⁷ Brandt-Rauf, P. W., & Brandt-Rauf, S. I. (1987). History of occupational medicine: relevance of Imhotep and the Edwin Smith papyrus. *British journal of industrial medicine*, 44(1), 68.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bu usul bilan bosh og'riqlarini davolashga harakat qilingan.⁸ Mesopotamiyada esa jarrohlik amaliyotlari asosan jarohatlarni davolash va suyaklarni to'g'irlash uchun qo'llanilgan.

Ayurveda Hindistonda kelib chiqqan qadimiy tibbiyot tizimi bo'lib, uning tarixi taxminan 5000 yilga borib taqaladi. "Ayurveda" sanskrit tilidan tarjima qilinganda "hayot ilmi" degan ma'noni anglatadi.⁹ Ushbu tibbiyot tizimi insonning jismoniy, ruhiy va ma'naviy holatini muvozanatda saqlashga qaratilgan.¹⁰ Ayurveda nazariyasiga ko'ra, inson organizmi beshta asosiy elementdan tashkil topgan: yer, suv, olov, havo va efir. Ushbu elementlar uchta asosiy doza – Vata, Pitta va Kapha – orqali organizmda namoyon bo'ladi.¹¹ Sog'liqning asosi bu dozalarning muvozanatda bo'lishidir. Agar ushbu muvozanat buzilsa, kasalliklar yuzaga keladi.

Ayurveda davolash usullari turli xil usullarni o'z ichiga oladi, jumladan:

1.Oziqlanish: Xun va ovqatlanish odatlari muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

2.O'simlik dori-darmonlari: Turli dorivor o'simliklar kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi.

3.Massaj va muolajalar: Tananing turli qismlariga e'tibor qaratish orqali energiya oqimini yaxshilash va toksinlardan xalos bo'lish.

4.Yoga va meditatsiya: Jismoniy mashqlar va ruhiy tinchlik orqali muvozanatni saqlash.

Ananaviy Xitoy Tibbiyoti ming yillar davomida rivojlanib kelgan tibbiyot tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi inson organizmida energiya muvozanatini saqlashdir. AXT nazariyasiga ko'ra, tanada **Qi** deb ataluvchi hayotiy energiya oqimi mavjud bo'lib, uning to'g'ri oqishi sog'liqning asosi hisoblanadi.¹² Qi energiyasining harakati **Yin va Yang** deb ataluvchi qarama-qarshi kuchlar orqali boshqariladi.

⁸ Collado-Vázquez, S., & Carrillo, J. M. (2014). Cranial trepanation in the Egyptian. *Neurología (English Edition)*, 29(7), 433-440.

⁹ Mazars GWujastyk D, Zysk KG. Indian medicine across the centuries. A Concise Introduction to Indian Medicine (La médecine indienne). Gopalan TK, translator. Ch. 1 2006 Delhi Motilal Banarsidass Publishers Private Limited:1–24 Indian Medical Tradition; Vol. VIII

¹⁰ Mavlonov, A., & Mirzohidov, S. (2024). O'ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDA O'Z O'RINLARINI TOPISHI–KELAJAK AVLODNING POYDEVORIDIR. *БЕЦННН МАГНСТРАТУРБН*, 3.

¹¹ Maas, P. A. (2018). Indian medicine and Ayurveda. *The Cambridge history of science*, 1, 532-49.

¹² Shaham Y, Shalev U, Lu L, De Wit H, Stewart J (2003) The reinstatement model of drug relapse: history, methodology and major findings. *Psychopharmacology* 168:3–20



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

AXT'da muhim davolash usullari quyidagilardan iborat:

1.Akupunktura: Tananing maxsus nuqtalariga igna sanchish orqali Qi oqimini muvozanatga keltirish.

2.Fitoterapiya: Dorivor o'simliklar va ularning aralashmalaridan foydalanish.

3.Tui Na massaji: Mushaklarni va tanadagi energiya oqimini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

4.Qi Gong va Tai Chi: Jismoniy mashqlar va nafas olish texnikalari orqali Qi energiyasini boshqarish.

Bugungi kunda ham Ayurveda va AXT butun dunyoda qo'llanilmoqda. Ko'plab mamlakatlarda bu tizimlar integratsion tibbiyotning bir qismi sifatida qo'llanilmoqda, ya'ni ular zamonaviy tibbiyot bilan birgalikda ishlatilmoqda.

Qadimgi Yunoniston va **Rim** tibbiyot tarixi juda boy bo'lib, Gippokrat va Galen kabi mashhur shaxslar bu sohada katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning asarlari va yondashuvlari tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Gippokrat qadimgi Yunonistonning eng mashhur shifokorlaridan biri bo'lib, zamonaviy tibbiyotning "otasi" deb hisoblanadi.¹³ U ko'pincha "Gippokrat qasami" bilan bog'liq bo'lib, bu qasamyod shifokorlar uchun kasb etikasi va axloqiy tamoyillarni belgilaydi.¹⁴ Uning asosiy g'oyalardan biri shundaki, kasalliklar tabiiy sabablar tufayli paydo bo'ladi va ularni ilmiy kuzatish va mantiqiy tahlil orqali tushunish mumkin.

Gippokratning tibbiyotga bo'lgan yondashuvi:

1.To'rtta suyuqlik nazariyasi: Unga ko'ra, inson tanasi to'rtta asosiy suyuqlikdan tashkil topgan: qon, balg'am, sariq safro va qora safro. Ushbu suyuqliklarning muvozanati sog'likni belgilaydi, va ularning disbalansi kasallikka olib keladi.

2.Tabiat bilan uyg'unlik: Gippokrat bemorlarning tabiat bilan uyg'un bo'lishini ta'kidladi. U kasalliklarni davolashda parhez, toza havo va yaxshi gigiyenaga katta e'tibor qaratdi.

3.Kuzatishga asoslangan tibbiyot: Gippokrat kasalliklarni tashxislash va davolashda empirik kuzatishga katta ahamiyat berdi.

Galen Rim imperiyasida yashab, o'z davrining eng nufuzli tibbiyoti mutaxassisi bo'lgan. U Gippokratning nazariyalarini rivojlantirib, o'zining tibbiy yondashuvini

¹³ Goldberg, H. (2006). *Hippocrates: Father of medicine*. iUniverse.

¹⁴ Miles, S. H. (2005). *The Hippocratic Oath and the ethics of medicine*. Oxford University Press.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

shakllantirdi.¹⁵ Galen anatomiyaga katta e'tibor qaratib, eksperimentlar va tajribalar orqali inson tanasining tuzilishi va funksiyalarini o'rgandi.

Galenning tibbiyotga bo'lgan yondashuvi:

1. Anatomiya va fiziologiya: Galen hayvonlar ustida eksperimentlar o'tkazib, inson tanasi haqida bilimlarni kengaytirdi. Uning tadqiqotlari asosan hayvonlar anatomiyasiga asoslangan bo'lsa-da, u ko'p yillar davomida tibbiy ta'limda standart bo'lib qoldi.

2. Farmakologiya: Galen turli xil dorivor o'simliklar va ularning aralashmalari bilan ishlashda katta tajribaga ega bo'lgan. U turli xil kasalliklar uchun dorilar va davolash usullarini ishlab chiqdi.

3. Gippokrat ta'siri: Galen ham to'rtta suyuqlik nazariyasini qo'llab-quvvatladi va uni yanada rivojlantirdi.¹⁶ U bu nazariyani tibbiy amaliyotda qo'llashni davom ettirdi.

Islomiy dunyo o'rta asrlar davrida tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishdi. **Ibn Sino (Avitsenna) va Al-Roziy (Rhazes)** kabi olimlar bu sohada o'zlarining bebaho hissalarini qo'shgan. Ularning asarlari va ilmiy ishlari nafaqat Islomiy dunyoda, balki Yevropa va boshqa hududlarda ham tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ibn Sino, g'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan, O'rta asrlarning eng buyuk shifokorlaridan biri hisoblanadi. U tibbiyot, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa ko'plab fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan.¹⁷

Ibn Sinoning tibbiyotga qo'shgan hissalar:

1. "Al-Qonun fi t-tibb" (Tibbiyot qoidalari): Bu Ibn Sinoning eng mashhur asari bo'lib, u tibbiyot bo'yicha ko'p jildli ensiklopediyadir. Bu asar tibbiyot sohasida uzoq vaqt davomida standart darslik sifatida qo'llanilgan.¹⁸ U ancha batafsil tibbiy

¹⁵ Kupreeva, I. (2014). Galen's theory of elements. *Bulletin of the Institute of Classical Studies. Supplement*, 153-196.

¹⁶ Manetti, D. (2009). Galen and Hippocratic medicine: language and practice. *Galen and the World of Knowledge*, 157-174.

¹⁷ Moosavi, J. (2009). The place of Avicenna in the history of medicine. *Avicenna journal of medical biotechnology*, 1(1), 3.

¹⁸ Masic, I. (2012). Thousand-year anniversary of the historical book: "Kitab al-Qanun fit-Tibb"-The Canon of Medicine, written by Abdullah ibn Sina. *Journal of research in medical sciences: the official journal of Isfahan University of Medical Sciences*, 17(11), 993.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

nazariyalar, kasalliklarning tashxisi va davolash usullari, farmakologiya va gigiyena haqida yozgan.

2.Kasalliklarning klassifikatsiyasi: Ibn Sino kasalliklarni turli kategoriyalarga ajratish va ularning sabablarini aniqlash bo'yicha mukammal tizim ishlab chiqdi. Bu yondashuv keyinchalik zamonaviy tibbiyotning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3.Jarrohlik va anatomiya: U jarrohlik amaliyotlariga katta e'tibor qaratgan, shuningdek, anatomiya va fiziologiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Al-Roziy, g'arbda Rhazes nomi bilan mashhur, shifokor, alkimyochi va faylasuf sifatida tanilgan. U tibbiyotning ko'plab sohalarida kashfiyotlar qilgan va amaliy tibbiyotda muhim o'rin egallagan.¹⁹

Al-Roziyning tibbiyotga qo'shgan hissalar:

1."Kitab al-Havi" (Haviy kitobi): Bu Al-Roziyning eng muhim asarlaridan biri bo'lib, u tibbiyot bo'yicha juda keng qamrovli ensiklopediyadir.²⁰ Asar turli xil kasalliklar va ularning davolash usullari, farmakologiya va diagnostika bo'yicha batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu asar asrlar davomida tibbiyotda manba sifatida ishlatilgan.

2.Chechak va qizamiq: Al-Roziy chechak va qizamiqni birinchi bo'lib aniqlagan va ularning farqlarini batafsil tavsiflagan. Bu uning kasalliklarni tasniflash va davolashda katta yutuqlarga erishganini ko'rsatadi.

3.Tibbiyotda etik yondashuv: Al-Roziy tibbiyotda axloqiy tamoyillarni rivojlantirishda katta hissa qo'shgan. U shifokorlarning bemorlarga qanday munosabatda bo'lishlari kerakligi haqida yozgan va shifokorlar uchun axloqiy qoidalarni belgilagan.

¹⁹ Zarshenas, M. M., Mehdizadeh, A., Zargarani, A., & Mohagheghzadeh, A. (2012). Rhazes (865–925 AD). *Journal of neurology*, 259, 1001-1002.

²⁰ Alakbarli, F., Mammadov, V., & Bandaliyeva, A. (2015). Scientific contribution of medical scientists in middle ages in Azerbaijan. *Revista de Filosofie, Sociologie și Științe Politice*, 168(2), 239-248.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'rta asr Yevropasida tibbiyot rivoji sekin kechdi va ko'p hollarda diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va ilmiy bilimlarning yetishmasligi sababli tibbiyot amaliyoti hozirgi zamonga nisbatan juda cheklangan edi. Ayniqsa, **Qora o'lat** (1347–1351) epidemiyasi davrida tibbiyotning holati juda qiyin bo'lgan, chunki kasallikning kelib chiqishi va davolash usullari haqida aniq bilimlar yo'q edi.²¹

Kasallikning sabablari va davolash usullari:

1.Tushunchalar: O'rta asr Yevropasida kasalliklar, jumladan, Qora o'lat, asosan, diniy sabablar yoki "yomon havo" (miasma) orqali paydo bo'ladi deb hisoblangan. Ko'pincha, Qora o'lat Allohning jazosi sifatida ko'rilgan va odamlar ommaviy tavbalar va diniy marosimlar orqali undan qutulishga urinishgan.

2.Davolash usullari: Davolash usullari ilmiy asosga ega bo'lmagan. Qon olish (flebotomiya), jarrohlik aralashuvlar, turli o'simliklardan tayyorlangan dorilar va xushbo'y tutatlar qo'llanilgan. Biroq, bu usullar ko'pincha kasallikni bartaraf etishda samarasiz bo'lgan.

3.Karantin: Qora o'lat davrida kasallikning tarqalishini oldini olish uchun ba'zi joylarda karantin choralari qo'llash boshlangan. Masalan, Venetsiyada kemalar portga kirishdan oldin 40 kun davomida karantinda saqlangan.²²

Renessans davri ilm-fanning har xil sohalarida, jumladan tibbiyot va anatomiya bo'yicha katta yutuqlarga erishilgan davrdir. Bu davrda anatomik bilimiga asos solgan bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda eng muhim shaxslardan biri **Andreas Vesalius** bo'lib, u zamonaviy anatomiya asoschisi sifatida tanilgan.

Renessans davrida o'rta asrlardagi diniy e'tiqodlar va eski tibbiy tushunchalarga qarshi chiqib, ilmiy izlanishlar va tajribalarga asoslangan yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Bu davrda anatomiyaga katta e'tibor qaratildi, chunki tananing tuzilishi va funktsiyalarini yaxshiroq tushunish shifokorlarning davolash usullarini takomillashtirishiga imkon berdi.

²¹ Wyman, W. (1897). The black plague. *The North American Review*, 164(485).

²² Cantor, N. F. (2015). *In the wake of the plague: The Black Death and the world it made*. Simon and Schuster.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Anatomik bilimiga asos solgan tadqiqotlar:

1.Jasadni diseksiyalash: Renessans davrida o'lgan odamlarning jasadlarini diseksiyalash (bo'laklarga ajratib o'rganish) odatiy holga aylangan.²³ Bu usul tananing tuzilishini aniqroq tushunishga va ilmiy anatomiyaning rivojlanishiga olib keldi.

2.Ilmiy usul: Anatomiyaning o'rganish jarayonida ilmiy usul qo'llanila boshladi. Bu yondashuv tanani kuzatish, tavsiflash va o'lchash orqali anatomik bilimlarni yanada to'liq va aniqroq shakllantirish imkonini berdi.

Andreas Vesalius flamand anatomisti bo'lib, uning ishlari anatomiya sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Uning eng mashhur asari "**De humani corporis fabrica**" (**Inson tanasining tuzilishi haqida**) bo'lib, bu kitob anatomiya bo'lgan yangi, ilmiy yondashuvni ifodalaydi.

Vesaliusning tibbiyot va anatomiya qo'shgan hissalar:

1."De humani corporis fabrica" (1543): Bu asar yetti jildan iborat bo'lib, u inson tanasining anatomiyasi haqida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.²⁴ Vesalius ushbu kitobda o'zi amalga oshirgan diseksiyalar va kuzatishlar asosida tananing barcha qismlarini batafsil tasvirlagan. U o'z vaqtida mavjud bo'lgan Galenning asarlarida uchraydigan xatolarni ochib tashladi. Vesalius Galenning asarlarida tasvirlangan ko'plab anatomik ma'lumotlar hayvonlar ustida o'tkazilgan diseksiyalarga asoslanganini va ular inson anatomiyasiga to'liq mos kelmasligini ko'rsatdi.

2.Anatomik rasm chizish: Vesaliusning kitobi o'zining mukammal anatomik rasmlari bilan ham mashhurdir. Bu rasmlar jasadlarning diseksiyalari asosida chizilgan bo'lib, ularning tafsilotlari va aniqligi anatomiya faniga bo'lgan yondashuvni butunlay o'zgartirdi.

²³ Park, K. (1995). The life of the corpse: division and dissection in late medieval Europe. *Journal of the history of medicine and allied sciences*, 50(1), 111-132.

²⁴ Harcourt, G. (1987). Andreas Vesalius and the anatomy of antique sculpture. *Representations*, (17), 28-61.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Ilmiy uslub: Vesaliusning ishlari tibbiyotda empirik kuzatish va tajribaga asoslangan ilmiy uslubning ahamiyatini ko'rsatdi. U ilm-fanni nazariyalar emas, balki amaliy tajribalar va dalillar asosida rivojlantirish kerakligini ta'kidladi.

Ilmiy Inqilob (XVI-XVII asrlar) davrida tibbiyotda eksperimentlar va ilmiy metodlarning joriy etilishi, shuningdek, mikroskopning ixtirosi va mikrobiologiya sohasidagi yutuqlar tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlar tibbiyotda yangi bilimlarni olish va kasalliklarni tushunishda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Tibbiyotda eksperimentlar va ilmiy metodlarning joriy etilishi

Ilmiy metod:

1. Empirik kuzatish: Ilmiy metodning asosiy tamoyillaridan biri empirik kuzatish bo'lib, bu jarayon tajribalar orqali ma'lumot to'plash va natijalarni analiz qilishni o'z ichiga oladi. Tibbiyotda bu yondashuv kasalliklarning sabablarini va davolash usullarini tushunishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2. Eksperimentlar: Ilmiy metodlarni joriy etish tibbiyotda tajribalar va eksperimentlarning o'tkazilishini talab qildi. Tajribalar yordamida kasalliklar, dorilar va ularning ta'siri haqida aniq ma'lumotlar olish imkoniyati yaratildi.

3. Gipoteza va sinov: Ilmiy metod gipotezalarni ilgari surish va ularni sinovdan o'tkazish orqali bilimlarni rivojlantirishga yordam berdi. Bu yondashuv ilmiy ishonchni oshirish va tibbiyot sohasida yangi kashfiyotlar qilish uchun asos yaratdi.²⁵

Mikroskopning ixtirosi:

Robert Xuk (1635–1703): Mikroskopning ixtirosida Robert Xukning roli juda muhimdir. U o'zining mikroskopi yordamida mikroskopik hayvonlar va o'simliklar, shuningdek, "hujayra" deb ataladigan kichik strukturalarni o'rgandi.²⁶ Xukning 1665 yilda chop etilgan "Mikrographia" nomli asari mikroskop yordamida kuzatilgan ko'plab yangi xususiyatlar va tuzilmalarning tavsifini o'z ichiga oladi.

²⁵ Lesch, J. E. (1984). *Science and medicine in France: the emergence of experimental physiology, 1790-1855*. Harvard University Press.

²⁶ Shapin, S. (1989). Who was Robert Hooke?.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Antoni van Leeuwenhoek (1632–1723): Van Leeuwenhoek mikroskopni takomillashtirib, yanada kuchliroq va aniqroq mikroskoplar yaratdi. U mikroskop yordamida bakteriyalar, bir hujayrali organizmlar va qon hujayralarini o'rgandi.²⁷ U o'zining kuzatishlari bilan mikroskopik hayotning mavjudligini ilk bor tasdiqladi. Tibbiyotda ilmiy metodlarning qo'llanilishi tibbiyotning eksperimentallik va ob'ektivlik asosida rivojlanishiga olib keldi. Bu yondashuv kasalliklarni aniqlash va davolash usullarini takomillashtirishda muhim rol o'ynadi. Mikroskopning ixtiroi va mikrobiologiya sohasidagi yutuqlar tibbiyotning rivojlanishida yangi burilish nuqtasini yaratdi. Kasalliklarni mikroorganizmlar tomonidan keltirib chiqarilishi haqidagi tushunchalar tibbiyot amaliyotida va sanitar choralarida katta o'zgarishlarga olib keldi.

Xulosa: Tibbiyot tarixi davomida bir qator muhim bosqichlar tibbiyot fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Qadimgi Yunoniston va Rimda Hippokrat va Galen tibbiyotning asosiy tamoyillarini shakllantirib, kasalliklarni ilmiy asosda tushunish va davolashga yo'l ochdi. Islomiy dunyo esa Ibn Sino va Al-Roziy kabi olimlar tomonidan yangi tibbiy bilimlar bilan boyitildi, ularning asarlari asrlar davomida Yevropa tibbiyotiga ta'sir ko'rsatdi. O'rta asr Yevropasida tibbiyot diniy e'tiqodlar va cheklangan bilimlar asosida rivojlangan bo'lsa-da, Renessans davri anatomiya va ilmiy kuzatishlar orqali tibbiy bilimlarning kengayishiga olib keldi. Andreas Vesaliusning anatomik tadqiqotlari Galen nazariyalarini qayta ko'rib chiqdi va anatomiya fanini yangi darajaga olib chiqdi. Ilmiy Inqilob davrida tibbiyotda eksperimentlar va ilmiy metodlar kiritilishi, shuningdek, mikroskopning ixtiro qilinishi mikrobiologiyaning rivojlanishiga asos soldi. Bu esa kasalliklarning mikroorganizmlar tomonidan keltirilishini tushunishga va zamonaviy tibbiyotning shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Bu bosqichlar tibbiyotning ilmiy asosda rivojlanishini ta'minlab, zamonaviy tibbiyotning poydevorini yaratdi.

²⁷ Karamanou, M., Poulakou-Rebelakou, E., Tzetis, M., & Androutsos, G. (2010). Anton van Leeuwenhoek (1632-1723): Father of micromorphology and discoverer of spermatozoa. *Rev argent microbiol*, 42(4), 311-4.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilosbek, A. (2023). LOTIN TILI VA TIBBIYOT TARIXI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(3), 3-6.
2. Amanda Onion, Missy Sullivan , Matt Mullen and Christian Zapata. <https://www.history.com/topics/ancient-middle-east/mesopotamia>
3. Sigerist Henri, A history of medicine, i. Primitive and archaic medicine (New York, 1951).
4. Vincent, G. E. (1904). The laws of Hammurabi. American Journal of Sociology, 9(6), 737-754.
5. Nunn, J. F. (2002). Ancient egyptian medicine. University of Oklahoma Press.
6. Mavlanov, A., & Mirzohidov, S. (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3(C1), 5-7.
7. Brandt-Rauf, P. W., & Brandt-Rauf, S. I. (1987). History of occupational medicine: relevance of Imhotep and the Edwin Smith papyrus. British journal of industrial medicine, 44(1), 68.
8. Collado-Vázquez, S., & Carrillo, J. M. (2014). Cranial trepanation in the Egyptian. Neurología (English Edition), 29(7), 433-440.
9. Mazars GWujastyk D, Zysk KG. Indian medicine across the centuries. A Concise Introduction to Indian Medicine (La médecine indienne). Gopalan TK, translator. Ch. 1 2006 Delhi Motilal Banarsidass Publishers Private Limited:1–24 Indian Medical Tradition; Vol. VIII
10. Mavlonov, A., & Mirzohidov, S. (2024). O'ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDA O'Z O'RINLARINI TOPISHI–KELAJAK AVLODNING POYDEVORIDIR. ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ, 3.
11. Maas, P. A. (2018). Indian medicine and Ayurveda. The Cambridge history of science, 1, 532-49.
12. Shaham Y, Shalev U, Lu L, De Wit H, Stewart J (2003) The reinstatement model of drug relapse: history, methodology and major findings. Psychopharmacology 168:3–20
13. Goldberg, H. (2006). Hippocrates: Father of medicine. iUniverse.
14. Miles, S. H. (2005). The Hippocratic Oath and the ethics of medicine. Oxford University Press.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

15. Kupreeva, I. (2014). Galen's theory of elements. Bulletin of the Institute of Classical Studies. Supplement, 153-196.
16. Manetti, D. (2009). Galen and Hippocratic medicine: language and practice. Galen and the World of Knowledge, 157-174.
17. Moosavi, J. (2009). The place of Avicenna in the history of medicine. Avicenna journal of medical biotechnology, 1(1), 3.
18. Masic, I. (2012). Thousand-year anniversary of the historical book: "Kitab al-Qanun fit-Tibb"-The Canon of Medicine, written by Abdullah ibn Sina. Journal of research in medical sciences: the official journal of Isfahan University of Medical Sciences, 17(11), 993.
19. Zarshenas, M. M., Mehdizadeh, A., Zargaran, A., & Mohagheghzadeh, A. (2012). Rhazes (865–925 AD). Journal of neurology, 259, 1001-1002.
20. Alakbarli, F., Mammadov, V., & Bandaliyeva, A. (2015). Scientific contribution of medical scientists in middle ages in Azerbaijan. Revista de Filosofie, Sociologie și Științe Politice, 168(2), 239-248.
21. Wyman, W. (1897). The black plague. The North American Review, 164(485).
22. Cantor, N. F. (2015). In the wake of the plague: The Black Death and the world it made. Simon and Schuster.
23. Park, K. (1995). The life of the corpse: division and dissection in late medieval Europe. Journal of the history of medicine and allied sciences, 50(1), 111-132.
24. Harcourt, G. (1987). Andreas Vesalius and the anatomy of antique sculpture. Representations, (17), 28-61.
25. Lesch, J. E. (1984). Science and medicine in France: the emergence of experimental physiology, 1790-1855. Harvard University Press.
26. Shapin, S. (1989). Who was Robert Hooke?.
27. Karamanou, M., Poulakou-Rebelakou, E., Tzetis, M., & Androutsos, G. (2010). Anton van Leeuwenhoek (1632-1723): Father of micromorphology and discoverer of spermatozoa. Rev argent microbiol, 42(4), 311-4.

